

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



«TASDIQLAYMAN»
Termiz davlat universiteti rektori
A. Marximov
2023 yil «26» avgust

AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI

fanidan

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi: 530000 - Fizikaga oid fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60530400 - Geografiya

Termiz - 2023

Fan/modul kodi AGDB206	O'quv yili 2023-2024	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Haftadagi dars soatlari 4-semestr 6 soat
Fanning nomi	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1 Aholi geografiyasi va demografiya asoslari	90	90	180

I. Fanning mazmuni

Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanini o'qitishdan maqsad talabalarni: Yer yuzida va alohida mamlakatlarda aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlar (dinamikasi); aholi joylanishi va hududiy harakati to'g'risida bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish; aholi takror barpo bo'lish qonuniyatlarini hududiy jihatlari bilan tanishtirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga aholi joylanishi qonuniyatlarini haqida bilimlar berish, uning soni va tarkibini tahlil qilish va buning asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)

2 1-mavzu. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, tadqiqot usullari

Aholi geografiyasi fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari. Uning fanlar tizimidagi o'rni, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalari. Fanning ob'ekti, predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari. Tadqiqot usullari. Aholi geografiyasi fanining asosiy bo'limlari. Aholi geografiyasi fanining muammolari. Aholi geografiyasi fani xorijda va O'zbekistonda tadqiq etish.

2-mavzu. Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari. Aholisi soni va uning dinamikasi

Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari xaqida umumiy tavsiflar. Birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar. Tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish jarayonlarining joriy hisobi. Maxsus, tanlama tadqiqotlar, registrlar, aholini

joriy hisobga olish. Aholini hisobga olish, turlari, aholi ro'yxati, rivojlangan, rivojlanayotgan hududlarda aholi sonini ro'yxatga olish. Aholi soni dinamikasi (tadrijiy o'zgarishlari). Aholining kategoriyalari: doimiy, vaqtincha, mavjud aholi. Aholi ko'payishi tarixiy bosqichlari. Aholi soni dinamikasi bo'yicha davlatlarni ajratish, guruhlash. Aholi soni dinamikasi, o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish va ko'payish sur'atlari. Aholining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari.

3-mavzu. Aholi tabiiy harakati. Aholi takror barpo bo'lishi geografiyasi Aholi tabiiy harakati: tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish. Aholi tabiiy harakatining dunyo mintaqalari bo'yicha taqsimlanishi. Aholi takror barpo bo'lishi, demografik o'tish nazariyasi, aholi takror barpo bo'lishining asosiy jarayonlari, ya'ni tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va qisman migratsiya. Demografik o'tish va uning bosqichlari, demografik portlash, demografik inqiroz, demografik ko'effitsientlar. Aholi takror barpo bo'lish turlari. Aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar. Kengaygan, oddiy va qisqargan aholi takror barpo bo'lishi va uning geografik tarqalishi.

4-mavzu. Aholining yosh – jinsiy tarkibi

Aholining yosh va jinsiy tarkiblari xususiyatlari. Aholi jins tarkibi shakllanishidagi omillar. Dunyo mamlakatlari aholisi jins tarkibidagi geografik farqlar. Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi. Aholi yosh guruhlari turlari. Aholi yosh guruhlari va aholi takror barpo bo'lish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi. Aholi yosh-jinsiy tarkibining demografik va hududiy jihatlari.

5-mavzu. Aholining irqiy tarkibi

«Irq» haqida tushuncha. Insoniyatning katta yevropoid, mongoloid, negroid, avstroloid va ko'p sonli mavda irqlardan tarkib toplanligi. Sof va aralash irqalar, ularning antropologik farqlari. Irqlar kelib chiqishining biologik asoslari. Irqlararo munosabatlar. Irqiy va etnik birliklar nisbati. Dunyo mintaqalari bo'yicha aholining irqiy tuzilishi.

6-mavzu. Aholining etnik tarkibi

«Etnos», «elab», «millat», «xalq» tushunchalari. Xalqaro milliy munosabatlar. Yirik va kichik tillar va millatlar. Ko'p millatli, ikki millatli va bir millatli mamlakatlar, milliy-etnik jarayonlar: konsolidatsiya, assimilyatsiya, integratsiya, ularning jahon siyosiy-ijtimoiy hayotida turgan o'rni. Dunyo mamlakatlari aholisining etnik tarkibi. Til oilalari. Til

oilalarining geografik tarqalishi. Xalqlarning tili bo'yicha guruhlaniishi.

7-mavzu. Dinlar geografiyasi

Aholining diniy tarkibi. Dunyo dinlari shakllanishi. Arxaik, milliy va dunyoviy dinlar. Xristian: katolik, pravoslav, protestan, islom: shiya, sunniylar, budda dinlari geografiyasi va ularning jahon siyosiy-ijtimoiy munosabatlaridagi o'rimi. Xinyanlar, maxayanlar va ularning geografiyasi. Dinlarning aholi demografik rivojlanishiga ta'siri. Yirik diniy ziyoratgohlar va ularning xalqaro aholi migratsiyasidagi roli. Jahon mamlakatlari bo'ylab dunyo dinlarining tarqalishi. Dunyodagi boshqa dinlar.

8-mavzu. Aholining ijtimoiy tarkibi. Aholi bandligi va mehnat resurslari

Aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy funktsiyasi. Ijtimoiy-iqtisodiy muhit. Aholining tabaqalanishi, uning dunyo mintaqalari miqyosida turlanishi. Aholi ijtimoiy tarkibi bilan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik. Aholi bandligi va uning geografik xususiyatlari. Mehnat resurslari, "Iqtisodiy faol aholi", "Iqtisodiy nofaol aholi" tushunchalari va ularning tarkibi. Mehnatda band aholi. Mehnat resurslari balansi. Mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishning hududiy xususiyatlari. Aholi bandligi muammolari. Mehnat bozori, uning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari. O'zbekistonda mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish holatlari.

9-mavzu. Aholi migratsiyasi turlari va yo'nalishlari

Migratsiya haqida tushuncha. Migratsiya turlari: ichki, tashqi, ixtiyoriy, majburiy doimiy, vaqtinchalik va mayatniksimon (mokkisimon), ularning shakllari va xususiyatlari. Migratsiyani hisobga olish. Migratsiyaning alohida hududlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. Migratsiya omillari: siyosiy, milliy-etnik, diniy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqalar. Xalqaro migratsion harakatlar tarixi, ularning alohida materiklar, o'lkalar yoki hududlarning iqtisodiy o'zlashtirishdagi roli. Tashqi migratsiya. Emigratsiya, immigratsiya, reemigratsiya, deportatsiya tushunchalari va ularning xususiyatlari. Dunyo aholisi mexanik harakati muammolari va siyosat. Immigratsiya siyosati.

10-mavzu. Aholi va aholi manzilgohlari joylanishining geografik shakllari, turlari

Aholining joylanishi va unga ta'sir etuvchi geografik omillar. Aholi

zichligi haqida tushuncha, uning mohiyati, hisoblash yo'llari. Aholi zichligi va hududning o'zlashtirilishi darajasi. Aholi zichligi bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolar. Hududning demografik, mutloq va nisbiy sig'imlari haqida tushuncha. Aholining joylashishi va manzilgohlari haqida umumiy tushuncha. Aholi joylashishining asosiy shakllari. Aholining joylashishi va xo'jalikni hududiy tashkil etish. Aholi joylanishining shakllari, aholi manzilgohlari, turlari, o'lchami, vazifalari. Aholi punktlari geografiyasi, uning geografik shakllari, turlari. Aholining joylanishi va punktlari haqida umumiy tushuncha. Aholi joylanishining asosiy shakllari. Shahar va qishloq aholisi.

11-mavzu. Shahar aholisi geografiyasi va urbanizatsiya jarayoni

Shaharlar, shaharchalar va ular tizimi haqida tushuncha. Qishloq aholi manzilgohlarga shahar maqomini berish mezonlari. Qishloq aholi manzilgohlarining turlari. Jahon urbanizatsiyasi. Urbanizatsiya tushunchasi. Shaharlar, shaharchalar va ular tizimi haqida tushuncha. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish omillari va turlari. Urbanizatsiyaning «ichki» (vertikal) va «tashqi» (gorizontal) rivojlanishi. Suburbanizatsiya, rurbanizatsiya jarayonlari. Urbanizatsiyalashgan mintaqalar, megapolislar, aglomeratsiyalar, oykumenopolislar.

12-mavzu. Qishloq aholisi va qishloq aholi manzilgohlari geografiyasi

Qishloq aholisi soni, dinamikasi, geografik tarqalishi. Qishloq aholi manzilgohlari turlari, vazifalari, o'lchami, klassifikatsiyalash. Aralash qishloqlar. Qishloq aholi manzilgohlari shakllanishidagi omillar. Qishloq aholi manzilgohlarining dunyo aholisi ko'payishi va tarqalishidagi roli. Aholining joylanishi va xo'jalikni hududiy tashkil etish.

13-mavzu. O'zbekistonda aholi geografiyasi

O'zbekiston Aholi geografiyasi asosiy xususiyatlari. O'zbekiston aholisi soni dinamikasi, tarkibi, aholi takror barpo bo'lishi va uning mintaqaviy jihatlari. Tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy harakati. Respublika aholisining demografik tarkibi. Mamlakatda aholining bandligi va mehnat resurslari muammosi. O'zbekiston aholisi migratsiyasi. Aholining joylanishi geografiyasi. Aholi punktlari, respublika qishloqlari, shaharlari geografiyasi.

14-mavzu. O'zbekiston aholisi soni dinamikasi, takror barpo bo'lishi va joylashuvi xususiyatlari.

<p>O'zbekiston aholi geografiyasining asosiy xususiyatlari. O'zbekiston aholisi soni dinamikasi, tarkibi, aholi takror barpo bo'lishi va uning mintaqaviy jihatlari. Tug'inish, o'lim va aholining tabiiy harakati. Respublika aholisining demografik tarkibi. Mamlakatda aholining bandligi va mehnat resurslari muammosi. O'zbekiston aholisi migratsiyasi. Aholi punktlari, respublika qishloqlari, shaharlari geografiyasi.</p>	<p>III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar (list of seminar topics)</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Aholi sonining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash. 2. Demografik koeffitsientlar bo'yicha hisob-kitoblari amaliy ish. 3. Dunyo va mintaqalar bo'yicha aholi soni dinamikasi jadvalini tuzish. 4. Dunyo aholi zichligi va yirik shaharlari kartasini tuzish. 5. Aholi etnik tarkibi kartasini ishlash. 6. Dunyo aholisi irqiy tarkibi kartasini ishlash. 7. Dunyo aholisi diniy tarkibi kartasini ishlash. 8. Aholi bandligidagi zamonaviy o'zgarishlarni baholash. 9. Dunyo aholisi zichligi va joylanishini tahlil etish. 10. Shaharlarni aholi soni, zichligi, funksiyalari bo'yicha guruhlash. 11. Demografik inqiroz va demografik portlash bosqichidagi davlatlarni ajratib tadqiq etish. 12. Aholi yosh tarkibi piramidasini ishlash. 13. O'zbekiston aholisi zichligi va yirik shaharlari kartasini tuzish. 14. O'zbekiston viloyatlari bo'yicha demografik ko'rsatkichlar jadvalini tuzish va uning asosida tahlil yozish. <p>IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR (Independent study and independent work)</p> <p>Talaba olgan nazariy bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Aholining iqtisodiy, ma'lumotlilik va ijtimoiy tarkibi.
---	---

<ol style="list-style-type: none"> 2. "Demografik o'tish bosqichlari" va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati. 3. O'zbekiston aholisi va joylanishi. 4. Aholining oilaviy tarkibi. 5. Demografik o'tish kontseptsiyasi. 6. Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati. 7. Aholi mexanik harakatini miqdoriy va sifatiy baholash. 8. Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi. 9. Aholi geografiyasining fan sifatida shakllanishi. 10. MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati. 11. Geodemografiya va demogeografiya. 12. XX asrda aholi geografiyasi. 13. Nikoh va ajralish. 14. Geodemografik vaziyatning mintaqaviy tiplari. 15. Dunyo mamlakatlari demografik siyosatlari. 16. Dunyo aholisi migratsiyasi. 17. Urbanizatsiya jarayoni. Dunyo shaharlari. 18. Tokio aglomeratsiyasi. 19. Boston-Vashington aglomeratsiyasi. 20. O'zbekiston aholisi, demografik jarayonlari. 21. Dunyo aholisi joylanishi. 22. Demografik portlash guruhidagi davlatlar geografiyasi. 23. G'arbiy Yevropa davlatlari aholisi demografik vaziyati. 24. Janubiy Amerika mamlakatlari aholi geografiyasi. 25. Janubiy Afrika mamlakatlari aholi geografiyasi. 26. Shimoliy Amerika aholisi joylanishi. 27. Afrika mamlakatlari aholisi soni dinamikasi va joylanishi. 28. Yaponiya aholisining demografik rivojlanishi. 	<p>V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanining tadqiqot objekti va predmeti, iqtisodiy geografik fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqalari; asosiy g'oya, qonuniyatlari va nazariyalari to'g'risida <i>tasavvur va bilinga ega bo'lishi</i>; • Hududlarda aholi va aholi manzilgohlari soni va dinamikasi, tuzilishi, tarkibi, aholining yosh-jins va milliy, etnik, irqiy va diniy tarkibini tahlil qilish; aholi kartalarini loyihalashva tuzish haqida bilishi va ulardan <p>4</p>
---	--

<p>foydalana olish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> • Aholi soni va joylashuviga ta'sir qiluvchi omillarni; demografik koeffitsiyentlarni; aholi takror barpo bo'lishi va unga ta'sir etuvchi omillarni, aholini geografik o'rganishda zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari hamda geografik axborot tizimlarini bilishi va ulardan foydalana olish malakasiga ega bo'lishi kerak <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and methods):</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar. 	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>	<p>VIII. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов. М., 1999. 2. Бўриева М.Р., Тожиёва З.Н. Аҳоли географияси. Т., 2000. 3. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие. М., 1999. 4. Медков В.М. Демография. Учебник. М., 2004. 5. Симагин Ю.А. Территориальная организация населения. М., 2004. 6. Бўриева М.Р., Эгамова Д.Н. Дунё аҳолиси: Ривожланиш жараёнлари. Т.: 2008. 7. Q.X.Abdurahmonov, X.X. Abduramanov. Demografiya. O'quv qo'llanma.- T.: 2010. 8. Тожиёва З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши. -Т.: 2010.
<p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 9. Ата-Мирзаев О.Б, Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. Т., 2002. 10. Ата-Мирзаев О.Б, Гентшке В., Муртазаева Р.Х. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. Т., 1998. 11. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана.-Т., 2009. 12. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. Т., 2002. 13. Демографический энциклопедический словарь. М., 1985. 14. Максакова Л.П. Миграция населения: проблемы регулирования. Т., 2001. 15. Народонаселение. Энциклопедический словарь. М., 1994. 16. Убайдуллаева Р.А., Ата-Мирзаев О.Б., Умарова Н.О. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги (илмий-ўқув қўлланма). Т., 2006. 17. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон кишлоклари (Қишлоқ жойлар географияси).-Т.: 2009. 18. 2010 World Population Data Sheet of the Population Reference Bureau. <p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 19. http://www.demoscope.ru. 20. http://www.dmo.econ.msu.ru. 21. http://www.undp.org/popin/popin.html. 22. http://www.demography.narod.ru 23. http://stat.uz. 24. http://ziyo.net 	<p>7</p> <p>Fan dasturi Termiz davlat universiteti Kengashining 2023 yil "26" avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan</p> <p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Erdonov M.N. – TerDU “Geografiya” kafedrası mudiri, g.f.n., dotsent. Esanov N.A. – TerDU “Geografiya” kafedrası o'qituvchisi. Xolmatov Z.M. - TerDU “Geografiya” kafedrası o'qituvchisi.</p> <p>Taqrizchilar O'Yakubov – TerDPI “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” kafedrası mudiri, g.f.n., dotsent Q.Allanov – TerDU, “Geografiya” kafedrası dotsenti, g.f.n.</p>	<p>8</p> <p>9</p>